

XALQ OG'ZAKI IJODIDA MAROSIMLARNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

*Quryozova Karomat Javlonbek qizi
Urganch Ranch texnologiya universiteti 2-kurs talabasi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada marosimlarning o'ziga xos jihatlari va ularning milliy madaniyatdagi ahamiyati yoritiladi. Xalq og'zaki ijodi marosimlari xalqning e'tiqodi, urf-odatlari va turmush tarzi bilan bog'liq bo'lib, avloddan -avlodga o'zaki tarzda yetkazilib kelayotgan madaniy merochning muhim qismidir.

Kalit so'zlar:xalq og'zaki ijodi, an'ana, urf-odat, yil fasllari marosimlari, oilaviy marosimlar, mavsumiy marosimlar.

Аннотация. В данной статье освещаются специфические аспекты ритуалов и их значение в национальной культуре. Обряды народного творчества связаны с верованиями, традициями и образом жизни людей и являются важной частью культурного наследия, передающегося из поколения в поколение.

Ключевые слова: фольклор, традиция, обычай, сезонные обряды, семейные обряды, сезонные обряды.

Annotation. This article highlights the specific aspects of rituals and their significance in national culture. Rituals of folk art are related to people's beliefs, traditions and lifestyle, and are an important part of cultural heritage that is passed down from generation to generation.

Key words:folklore, tradition, custom, seasonal rituals, family rituals, seasonal rituals.

Xalq og'zaki ijodida marosimlarning o'ziga xos jihatlari. Har bir millatning o'ziga xos marosim, urf-odati, an'anasini bo'lgani kabi o'zbek xalqining ham o'ziga xos ahamiyat kasb etadi. Marosim so'zi "marsum" so'zidan olingan bo'lib "chizilgan", "rasm qilingan", "odat" bo'lgan degan ma'nolarni bildiradi. Har bir inson umri davomida turli maqsadlarda uyushtirilgan va xalq orasida odat tusiga kirgan marosimlarda ishtiroy etadi. Ular to'ylardan, yig'inlardan, ma'rakalardan iborat bo'lishi mumkin. Ayni paytda, butun xalq qatnashadigan bayramlarni ham marosimlar qatoriga qo'sha olamiz. " Insonga sihat-salomatlik tilash, uning turmushida to'kin-sochinlik, kundalik hayotida omad keltirish yoki inson hayotining muhim nuqtalarini qayd etish, nishonlash maqsadida maxsus o'tkaziladigan, xalq orasida qat'iy an'anaga aylanib qolgan xatti-harakatlar marosim deyiladi.[1] Mazkur ta'rifdan ma'lum bo'lyaptiki, marosim xalq orasida qat'iy an'anaga aylangan tadbir hisoblanar ekan. Haqiqatan ham, qizni turmushga berish, yigit tomonidan qiz yashaydigan oilaga sovchi kelishidan boshlanadi. "Sovchi" so'zi Mahmud Koshg'ariy ma'lumotiga ko'ra "xabarchi" ma'nosini anglatgan.[2] Insonning tug'ilishi, uylanishi, turmushga

chiqishi bor ekan, marosimlar ham bo‘laveradi. Demak marosimlar xalq tarixidagi eng qadimgi qadriyatlar hisoblanadi. Qadim zamonlarda yigit qizga uylanish uchun o‘zining jismoniy quvvatini sinab ko‘rish orqali kurash tutganlar. Keyinchalik zamonlar o‘tishi bilan bu odatlar yo‘qolgan. Marosimlar o‘tkazilish vaqtin, ko‘rinishlari, odamlarning ishtiroki, maqsadiga ko‘ra mavsumiy va oilaviy maishiy turlarga bo‘linadi. Shuningdek, mavsumiy marosimlarda qon-qarindoshlik jihatidan yaqinlikdan qat’iy nazar, ma’lum hududda yashaydigan butun aholi ommaviy tarzda ishtirok etadi. Navro‘z, Ramazon hayiti, Qurbon hayiti kabi yirik bayram marosimlar ham borki, ularni bir yoki bir necha xalq vakillari o‘tkazadilar. Masalan Shox moylar, Sust xotin marosimlari esa kichik bir qishloq, mahalla yoki juda bo‘limganda tuman miqyosida uyushtiriladi. Oilaviy marosimlarda esa asosan, marosim egasining qarindoshlari, do‘st- birodarlari, hamkasb xizmatchilar qatnashadilar. Ammo marosimlar turidan maqsadidan qat’iy nazar, jamoadagi odamlarni bir-biriga yaqinlashtirishi, o‘rtada mehr- oqibat tushunchalarini shakllantirishi har bir odamni topshirilgan vazifani bajarish ruhida mas’uliyatli qilib tarbiyalashi bilan ahamiyatlidir. Mavsumiy marosimlar folkloriga yil fasllarining o‘zgarishi, har bir faslning o‘z vaqtida xalq tasavvurida shakllangan tarzda kelishi hosilning mo‘lligini yoki dehqon mehnatining zoye ketishini belgilagan. Shuning uchun yil boshlanishi- bahor biz o‘zbeklarda umidlar fasli sifatida kutib olingan. Har faslning o‘z xislati, har bir faslning o‘z fazilati bor deganlaridek, xalqimiz boshqa fasllarni ham o‘ziga xos ravishda qabul qilgan va har qaysisiga alohida alohida marosimlar o‘ylab topgan. Bir fasldagi udumlar ikkinchisida takrorlanmagan. Jumladan, bahorda "Loy tutish", "Shox moylar", "Navro‘z", "Sust xotin" marosimlari o‘tkazilgan. Masalan, Loy tutishda ariqlar tozalangan butun aholi bu ishda faol ishtirok etgan, agarda kimdir ariq tozalayotganlarning oldidan o‘tib ketayotgan bo‘lsa, o‘sha o‘tib ketayotgan odamga ketmon yoki belkurakda loy otishgan. Loyga tutilgan yo‘lovchi yo biron bir qo‘sish, yo biron bir hunarini ko‘rsatib ishayotganlarni mamnun qilishi kearak bo‘lgan. Aks holda u ham odamlarga qo‘silib ariq tozalashga majbur bo‘lgan. Keyingi o‘ziga xos bo‘lgan yana bir marosim bu "Shox moya" marosimi hisoblanadi. Bu marosimda bahorda birinchi yer haydash ishlarining boshlanishi bilan o‘tkaziladigan marosimlardan biri. Bo‘lajak hosilning mo‘l bo‘lishiga niyat qilib, qo‘shta qo‘silgan ho‘kiz shoxi yog‘ bilan moylangan va dastlab piri badavlat, uvali-juvali bobo dehqon qo‘shtab bergan. Keyinchalik ishning davomini yoshlar davom ettiraverган. Bahor quruq kelgan kezlarda esa "Sust xotin" marosimini o‘tkazganlar. Bu marosimda mahalla, qishloq ayollari yig‘ilib poliz qo‘riqchisiga o‘xshagan qo‘g‘irchoq yasashgan va uning ustidan suv sepib qo‘sish aytishgan.

Sust xotin, suzma xotin

Ko‘lankasi maydon xotin

Yomg‘ir yog‘dir ho‘l bo‘lsin

Yeru jahon ko'l bo'lsin
 Maysalar qulqoq yozsin
 Sutu qatiq mo'l bo'lsin.

Baho faslidagi eng aziz va har bir o'zbek uchun qadrli marosim Navro'z bayramidir. Navro'z haqidagi ma'lumot Abu Rayhon Beruniyning "Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar" asarida uchraydi. Navro'z ayyomi har yilning 21-mart kuni nishonlanadi. Bayramning Navro'z deb atalishi "Yangi kun", ya'ni yangi yilning kirib kelishi bilan bog'liq. Bu kunda kecha va kunduz muddati tenglashadi va kunduzning uzayishi boshlanadi. Shuning uchun ham Navro'z diniy emas balki, dehqonchilik bog'dorchilik ishlarining qizg'in pallaga kirishi bilan aloqador alohida bayramdir. Yoz faslida o'tkaziladigan "Choy momo" marosimida esa tabiatdan shamolni to'xtatish so'raladi. "Choy momo" aslida "Shamol ona" ma'nosini beradi.

Choy, choy, choy momo
 Choy momosi o'libdi
 O'g'li yetim qolibdi
 Bosa-bosa beringlar
 Bosilib qolsin bu shamol
 Ucha-ucha beringlar
 Uchilib qolsin quv shamol

Oblo-hu, oblo-hu. kabi qo'shigini aytib shamol to'xtatish marosimi mazmunan uzoq qadim zamonlarda mifik dunyoqarash belgilari sifatida baholanib kelinmoqda. Kuzda esa shamol chaqirish marosimi o'tkazilgan. Endi yig'ilgan don hosilni po'chog'idan ajratish uchun shamol kerak, don yanchilgach, uni shamolda shopiradilar va somonini shamol uchirib, don tozalanadi." Yo, Haydar" qo'shig'i aynan ana shu marosim belgisi hisoblanadi.

Haydar, ota-onang o'libdir,
 Moli senga qolibdir
 Bolang suvga oqibdir
 Shamolingni qo'yivor.

Bu marosim ham qadim zamonlardan bizgacha faqat ayrim hududlarda saqlanib yetib kelgan. Qish faslida esa "Yas-yusun" marosimi o'tkazilgan. Ushbu marosimda yil bo'yi qilingan mehnatdan dam olish hisoblangan. Bu marosim asosan bo'za ichish bilan bog'liq. Marosimda kosagul piyolaga quyib bergen bo'zani bir nafasda ichish, uni to'kmaslik, maxsus ruxsatgacha faqat cho'kka tushib o'tirish, odob saqlash, ruxsatsiz ketib qolmaslik, marosim boshlig'iga itoat etish kabi shartlar bo'lgan. Marosimda quyidagi mazmunda qo'shiq aytilgan:

Alyor bo'lsin-ay,
 Xo'jam yo bolsin-ay
 Xo'jam berdan bu davlatga,

Dushman zor bo'lsin-ay.

Xullas mavsum marosimlari xalqimizning yil fasli bilan bog'liq yig'inlardan iborat edi. Bu marosimlar bir tomonidan, o'zbek xalqi qadriyatları tarkibining boyligini qadimiyligini dalillasa, ikkinchi tomonidan o'zbeklarning qadim zamonlardan birlashgan xalq, millat ekanligining yaqqol dalili desak ham bo'ladi. O'zbek marosimlaridan yana bir turi bu oilaviy marosimlardir. Ular o'z navbatida 2 guruuhga bo'linadi.

1.to'y marosimlari

2.motam marosimlar

Oilaviy marosimlar o'z navbatida bola tug'ilganidan to uning dafn qilinishigacha bo'lgan marosimlardir. To'y marosimlariga beshik to'yi, xatna (sunnat) to'yi, nikoh to'ylari kiradi. Har biri o'ziga xos an'ana va urf-odat boyicha bajariladi. Bu marosimlar har mamlakatda har xil bo'ladi, har bir davlatning o'ziga yarasha urf-odati an'anasi mavjud davlat esa mana shu qadimiy an'analar hisobiga boy.

Motam marosimlari ham juda qadim tarixga ega. Mahmud Koshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" asarida saqlanib qolgan Alp Ertunga haqidagi marsiya fikrimizga dalildir.[4] Motam marosimida juda ko'p kichik-kichik yig'inlar o'tkaziladi. Uch, yetti, yigirma, qirq kunliklari, qor yog'di, gul, shir oshi, kabilar shular jumlasidandir. Bu marosimda dunyodan ko'z yumgan kishining ijobiy xislatlari esga olinib yigi beriladi:

Baland tog'lar past bo'ldimi, voy otam

O'lganiningiz rost bo'ldimi, voy otam

Shamol kelmay o'chdi chirog'im, voy otam

Kuz kelmay xazon bo'ldi bog'im, voy otam

kabi tarzida qo'shiq aytildi. Bunday qo'shiq turlari marsiya deyiladi. Odatda motam marosimi hayotdan ko'z yumgan shaxs vafotiga yillik ma'rakalar o'tkazish bilan yakunlanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak xalq marosimlari shakl va mazmunidan qat'iy nazar bugungi kunni o'tmish bilan bog'lab turuvchi ma'naviy zanjir hisoblanadi. Marosimlarning mo'jizali ta'siriga ishonish ham xalq vakillarining halolligi, tabiatan pokizaliligi bilan uzviy bog'liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Imomov K. Mirzayev T. Sarimsoqov B. Safarov O. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. T.: "O'qituvchi", 1990. 151-158 bet.
2. Madayev O. Sobitova T. O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi T. 2010. 151-bet
3. Madayev O. T. Sobitova Xalq og'zaki poetik ijodi T. 2010.